SPORTCHINIG NUTQIY ETIKETINI SHAKLLANTIRUVCHI VA UNGA PUTUR YETKAZUVCHI OMILLAR

Sultanova Zarifa O‘ktamovna
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, O‘zbekiston, Chirchiq sh.
Zarifasultanova8@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada sportchining nutqiy etiketi tavsifi hamda uni ochib berish, sportchi nutqiy etiketini shakllantiruvchi va unga putur yetkazuvchi sotsiolingvistik omillar, sportchi nutqining lingvomadaniy asoslari ochib berilgan.

Аннотация: В данной статье описывается и объясняется речевой этикет спортсмена, социолингвистические факторы, формирующие и подрывающие речевой этикет спортсмена, а также лингвистические и культурные основы речи спортсмена.

Kalit so‘zlar: Inson, sportchi, nutqiy etiket, sportchining nutqiy etiketi, nutq sofligi, **jargon, vulgarizmlar**, adabiy til me’yorlariga.
Ключевые слова: Человек, спортсмен, речевой этикет, этикет речи спортсмена, чистота речи, жаргон, вульгаризмы, нормы литературного языка.

Insoniyat ongli mavjudot sifatida boshqa jonzotlardan o‘zining nutq qobiliyati va axloqiy me'yorlarga rioya qila olish qobiliyati bilan ajralib turadi. Inson o‘z fikrlarini aniq va ravon ifoda etishi bilan birga, nutqiy jarayonda so‘zlarning ma’no jihatidan mos kelishini ham hisobga olishi lozim. Shuningdek, u suhbatdoshining ruhiy holatini, muloqot muhitini va ijtimoiy sharoitni inobatga olib so‘zlashga intilishi zarur. Biroq, ko‘pchilik nutq madaniyatiga rioya qilish faqat rasmiy idoralarda yoki diplomatik muloqotlarda ahamiyatli deb hisoblaydi, bu esa katta xatodir. Tilimizga bo‘lgan hurmat va e’tibor uning estetik jozibasi va semantik mazmunini to‘g‘ri anglash orqali namoyon bo‘ladi. Buning uchun esa, eng avvalo, til imkoniyatlaridan to‘g‘ri va samarali foydalanish talab etiladi.

Nutq madaniyatining muhim jihatlaridan biri uning sof bo‘lishidir. Sof nutq tushunchasi adabiy til me'yorlariga mos, aniqligi va grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilgan ifodalarni o‘z ichiga oladi. Ammo ba'zan turli sabablarga ko‘ra, til normalariga zid unsurlar uchrab turadi, bu esa nutq sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday hodisalar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. So‘z va grammatik shakllarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi.

Bo‘lib o‘tmish davralardan gapirdi. Qanday qilib samovar olganlaridan gapirdi. – O‘ynab borib, ukkag‘arning polvonini mana bunday ushladim... – dedi. – Qarang-qarang, qo‘limga e’tibor bering, qo‘limga!..

– Bizdada olishib edik... – dedi mehmon. Bo‘ri polvon gapni ilib ketdi.

– Samovarda olganmisiz? – dedi. – Ha-da!.. (T. Murod. “Yulduzlar mangu yonadi”)

2. Shevaga oid so‘z, ibora va frazeologik birliklarning adabiy nutqda ishlatilishi.

Qizlar Bo‘rini kunilab-kunilab ketdi.

– Xasis, Bo‘ri xasis! – dedi. – Egachim elakli bo‘ldi, elagi tilakli bo‘ldi! – dedi. – Bo‘ridan it ham baraka topmaydi! – dedi. (T. Murod. “Yulduzlar mangu yonadi”)

3. Varvarizmlar – asossiz va o‘rinsiz ravishda chet tillardan olingan so‘z va birikmalarni qo‘llash.

Bo‘ri polvon ovozini ko‘tarib aytdi:

– Ay, poshikastalar, devordan ko‘p bo‘ylay berma, polvonlarning xayolini bo‘lasan! Bor, o‘smangni qo‘y! (T. Murod. “Yulduzlar mangu yonadi”)

4. Jargon so‘zlar – muayyan ijtimoiy guruhlarga xos bo‘lgan norasmiy leksik birliklar.

Bo‘ri polvon Ermatningda qo‘lidan ushladi.

– Ermat polvon, – dedi, – siz manovi Shukuy... e, astag‘firullo, Shukur polvon bilan olishasizmi? O‘zi, yurak uryaptimi? E, bali, gap bunday bo‘pti-da! Qani, yuringlar. (T. Murod. “Yulduzlar mangu yonadi”)

5. Vulgarizmlar – qo‘pol va odob me’yorlariga zid bo‘lgan so‘zlar.

Bakovul oqsoqollar beliga bittadan to‘nlik beqasam boyladi. – Bali, kuchlaringiz barobar ekan! – dedi. Oqsoqollar bo‘sh kelmadi.

– Eb-ey, nimalar deyapsiz, rais bova? – dedi Hotam polvon. – O‘ngimga kelib edi-yu, tag‘in, Bo‘ri polvonning biron yeri lat yemasin dedim-da!

6. Parazit so‘zlar – nutqda ortiqcha takrorlanadigan, ma’no yuklamasiga ega bo‘lmagan unsurlar.

Maksim polvon yengsiz, yoqasiz jelak kiyib chiqdi. Bo‘ri polvon barmoqlari uchi bilan jelagidan ushladi.

– Eb-ey, eb-ey, Maksim inim, bu qanday libos? Mabodo maykamasmi? – dedi. (T. Murod. “Yulduzlar mangu yonadi”)

7. Kanselyarizmlar – quruq rasmiyatchilikni ifodalovchi ortiqcha byurokratik iboralar.

Biror odam haqida gap bo‘lsa, Bo‘ri polvon: – Polvonmi-yo‘qmi? –deya so‘radi. Yo‘q, javobini eshitsa, qo‘l siltadi.

– Erkakning sultoni olishadi, ha! – dedi. – Ana, Xidir polvon, kezi kelganda davrani gursillatib olishib keta beradi. Men raisman, deb o‘tirmaydi. Bo‘lmasa kimsan – Botirov-a! Arbob, ha, arbob! Ana uni chin erkak desa bo‘ladi! Chunki ota-bovasining hunarini yerda qoldirmayapti! (T. Murod. “Yulduzlar mangu yonadi”)

Nutq madaniyatiga rioya qilish nafaqat rasmiy muhitda, balki kundalik hayotda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, tilimizning tozaligini saqlash va uni me’yorlarga muvofiq ravishda qo‘llash madaniy va ma’naviy yuksalishning muhim shartlaridan biri sanaladi.

Adabiy til me’yorlariga rioya qilish va nutq madaniyatini saqlash tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Nutq madaniyatini buzuvchi omillar orasida birinchi navbatda fonetik va orfoepik jihatdan so‘z hamda qo‘shimchalarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi alohida ajralib turadi. Misol uchun, *tomni usti*, *kiyimlarim uyga turibdi* kabi iboralar adabiy til qoidalariga zid bo‘lib, ularning to‘g‘ri shakli *tomning usti*, *kiyimlarim uyda turibdi* tarzida bo‘lishi lozim. Bir qarashda ushbu shakllar bir-biriga o‘xshash ko‘rinsa ham, grammatik va semantik jihatdan ular tubdan farq qiladi.

Bundan tashqari, sinonim so‘zlarning o‘rin almashishi ham nutq mazmuniga putur yetkazishi mumkin. Masalan, *yuz* so‘zining *bet, aft, bashara, turq, oraz, uzor, jamol, chehra* kabi ma’nodosh variantlari mavjud. Ushbu so‘zlar turli hissiy-emotsional ifodalarga ega bo‘lib, har biri o‘ziga xos qo‘llanilish doirasiga ega. Jumladan, *jamol* va *chehra* ijobiy konnotatsiyaga ega bo‘lsa, *turq, bashara, aft* so‘zlari ko‘proq salbiy ohangda ishlatiladi. *Oraz* va *uzor* tarixiy leksik qatlamga mansub bo‘lsa, *yuz* va *bet* esa universal, ya’ni har qanday kontekstda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan dominant birliklardir. Ushbu so‘zlarning noto‘g‘ri almashinuvi gap ma’nosini buzishi mumkin. Masalan, *jamoling qurisin* yoki *basharangdagi dona xoling o‘zingga juda yarashadi* kabi gaplarda leksik mos kelmaslik kuzatiladi, bu esa ifoda mazmunini buzadi.

Nutq sofligiga ta’sir etuvchi yana bir muhim omil dialektizmlar, ya’ni shevaga oid so‘zlardir. Kunlik muloqot jarayonida, ya’ni oilaviy suhbatlar, mahalliy doira yoki do‘stlar o‘rtasida bunday unsurlardan foydalanish tabiiy hol sanalsa-da, ta’lim, rasmiy tadbirlar, ish

muhitida va ilmiy-ommabop nutqda sheva elementlarining ishlatilishi nutq madaniyati talablariga mos kelmaydi. Ayniqsa, pedagoglar va davlat tashkilotlari xodimlari adabiy til me’yorlariga qat’iy rioya etishlari lozim.

Nutq sofligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi yana bir omil – varvarizmlar bo‘lib, bu hodisa asosan chet tillaridan olingan va adabiy til normalariga zid bo‘lgan leksik birliklarning o‘rinsiz qo‘llanilishi bilan bog‘liq. Hozirgi kunda migratsiya, ijtimoiy tarmoqlar va biznes sohasining rivojlanishi tufayli chet tillardan o‘zlashgan ayrim so‘zlar nutqimizda faol qo‘llanila boshlagan. Masalan, *ok, okey, malades, obshi, pajalista, vabshe* kabi so‘zlar o‘zbek adabiy tiliga xos emas va ortiqcha lingvistik aralashmalar natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, ularning o‘rniga adabiy ekvivalentlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Til sofligi va nutq madaniyatini saqlash har bir til egasining burchi bo‘lib, adabiy til qoidalariga qat’iy rioya qilish orqali muloqot samaradorligini oshirish mumkin. Shu boisdan, lingvistik normalarga e’tiborli bo‘lish va so‘zlashuvda me’yoriy birliklardan foydalanish madaniyatli nutq shakllanishining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Jargonlar – bu muayyan kasb egalari yoki ijtimoiy guruhlar tomonidan ishlab chiqilgan, faqat shu guruh a’zolari uchun tushunarli bo‘lgan leksik birliklardir. Jargonlar o‘ziga xos sun’iy til sifatida namoyon bo‘lib, ushbu so‘z va iboralar tor doiradagi kishilar tomonidan qo‘llaniladi. Masalan, *pul* so‘zi o‘g‘rilar jargonida *mullajiring*, qassoblar orasida esa *soqqa* shaklida ishlatiladi. Adabiy-badiiy asarlarda bunday so‘zlar ko‘p uchraydi, chunki yozuvchilar jargonlar yordamida qahramonlarning ijtimoiy muhitini realistik tarzda aks ettiradilar.

Nutq sofligiga zarar yetkazuvchi yana bir omil – **vulgarizmlar**dir. Ushbu atama lotin tilidan olingan bo‘lib, *qo‘pol, dag‘al* ma’nolarini anglatadi. Vulgarizmlar adabiy til me’yorlariga zid bo‘lib, qo‘pol so‘zlar, so‘kishlar, qarg‘ishlar hamda haqoratli iboralarni o‘z ichiga oladi. Bunday so‘zlarning ishlatilishi nafaqat nutq madaniyatiga, balki axloqiy me’yorlar va qonun-qoidalarga ham zid hisoblanadi.

Bundan tashqari, nutqda ortiqcha takrorlar, pauzalar va duduqlanishlarning ko‘p uchrashi ham uning sifatsiz bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bu holat muloqot jarayonining mantiqiy yaxlitligini buzib, tinglovchilar uchun zerikarli ko‘rinishga olib keladi. Masalan, *xo‘p, mayli, haligi, anovi, masalan, aytgancha, menimcha, uni-buni, nimaydi, ehh, uhh, uff, balki* kabi so‘zlarning ortiqcha takrorlanishi nutqning ravonligini pasaytiradi va uning semantik aniqligiga putur yetkazadi.

Mazkur muammolarning oldini olish uchun kishilar doimiy ravishda adabiy asarlar mutolaasi bilan shug‘ullanishlari, fikr ifodalash madaniyatini rivojlantirishga harakat qilishlari lozim. Nutq ustida ishlash, adabiy til me’yorlariga rioya qilish va ortiqcha unsurlardan qochish muloqot samaradorligini oshirish bilan birga, insonning intellektual saviyasini ham namoyon etadi.

Kanselyarizmlar – bu rasmiy hujjatlar va xizmat nutqida ishlatiladigan iboralar bo‘lib, ularning ortiqcha qo‘llanilishi nutqning tabiiyligini pasaytiradi hamda ifoda uslubining me’yoriy ravonligiga putur yetkazadi. Shu bois, adabiy til me’yorlariga rioya qilish, so‘z va iboralardan unumli foydalanish hamda nutqni badiiy-uslubiy jihatdan boyitish orqali uning ta’sirchanligini oshirish muhim hisoblanadi. Bu jarayonda badiiy adabiyot bilan tanishish, so‘zlarning imloviy va semantik xususiyatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda nutqning sofligini saqlash va buzuvchi omillarni bartaraf etish yo‘lida qator amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o‘zbek hamda jahon adabiyotiga oid asarlarning nashri kengaytirilmoqda, rasmiy hujjatlar yuritish uchun *“Davlat tilida ish yuritish asoslari”* qo‘llanmasi ishlab chiqildi, shuningdek, *“O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili to‘g‘risida”*gi qonun ijrosi ta’minlanmoqda.

Shu bilan birga, tilning sofligini mustahkamlash va uni buzuvchi unsurlar ta’sirini kamaytirish uchun quyidagi masalalarga e’tibor qaratish zarur:

- Chet el adabiyoti, filmlari va multfilmlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida mentalitetimizga yot yoki tushunarsiz so‘zlarni milliy tildagi ekvivalent bilan almashtirishni nazorat qilish;
- Jahon ilm-faniga oid asarlar va ensiklopediyalardagi murakkab terminlarning o‘zbek tilidagi muqobil variantlarini ishlab chiqish;
- Maktab va oliy ta’lim muassasalarida imlo lug‘ati va izohli lug‘atlar asosida maxsus darslar tashkil etish;
- Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun adabiy til me’yorlarini oson va tushunarli shaklda bayon etuvchi ko‘rgazmali darsliklar hamda multfilmlar yaratish;
- Adabiy til qoidalarini va nutq madaniyatini o‘rgatuvchi darslik, qo‘llanma va videomateriallar tanlovlarini muntazam ravishda tashkil etish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, adabiy til me’yorlariga rioya qilish, milliy til va nutq madaniyatini rivojlantirish, o‘zbek tilining jozibasini namoyon etish va uning sof holda saqlanishiga xizmat qilish har bir fuqaroning burchidir. Buyuk allomalar – Navoiy, Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Bobur, Furqat va Mashrab singari ajdodlarimizdan bizga boy til merosi yetib kelgan. Ushbu bebaho xazinaning mohiyatini anglash, o‘rganish va keyingi avlodlarga yetkazish muhim ilmiy-ma’rifiy vazifalardan biridir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Rrespublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni. Manba: http://lex.uz/docs/4561730
2. Богомолова Н. Н. Массовая коммуникация и общение. – М: Знание, 1988. – 80 с.
3. Петрова Е. А. Межкультурная невербальная коммуникация. – М.: Наука. 2019.
4. T. Murod. “Yulduzlar mangu yonadi”. – M: Ziyo nashr. 2020.
5. Turdiyeva H. K. Nutqiy etiket birliklarining lingvopragmatik tadqiqi (fors va o‘zbek tillaridagi materiallar asosida): Filol. fan. dok. ...dis. – Toshkent, 2020. – 186 b.